

Date: 19th November-2024

TILSHUNOSLIKDA TRANSPOZITSIYA HODISASINING O'RGANILISHI

Ergashev Sardor Kosimovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunosligda transpozitsiya hodisasining o'rganilish masalasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, transpozitsiya hodisasining tabiiy va ijtimoiy sohalarida atama sifatida qo'llanilishi haqida fikr yuritilib, mazkur mavzuda tadqiqot olib borgan tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari va nazariyalariga munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: transpozitsiya, til sathlari, ichki transpozitsiya, tashqi transpozitsiya, funksional-semantik imkoniyat, konversiya, grammatik kategoriya, metateza, konbinatorika, lisoniy va nutqiy asos.

Millatning yashash tarzi, olamni badiiy idrok etish yo'sinida ulkan o'zgarishlar yasagan XXI asr o'zbek tilshunosligining o'ziga xos xususiyatlarni kuzatish, ulardan muayyan ilmiy xulosalar chiqarish mutaxassislardan ulkan mas'uliyat talab qiladi. Bu asrga kelib dunyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbeklarning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondashish tarzi avvalgi o'nlab asrlardagiga nisbatan jiddiy o'zgardi. Bu xalqimizning ma'naviy hayotida, tafakkur taraqqiyotida alohida bosqich bo'lib qoldi. Bugunda o'zbek tilimiz yuksalib, taraqqiy etar ekan, tilshunoslarimiz oldida bu boy tilni tadqiq etish, chuqur o'rganish vazifasi ko'ndalang bo'lib qoladi. Shunday ekan o'zbek tilshunosligida ham tilshunoslikning xarakter-tabiati, kishilik jamiyatidagi vazifasi, til qurilishi va qurilishni tashkil etgan qismlarning munosabati singari dolzarb masalalarni ilmiy-nazariy o'rganishnilar taraflama tadqiq qilishni talab qiladi. Sir emaski, tilimizda hali o'z yechimini kutayotgan masalalar talayginabo'lib, bugun so'z yuritmoqchi bo'lgan transformatsiya jarayoni ham shunday mavzular sirasiga kiradi. Tilshunoslikda hozirga qadar til qurilishi bilan bog'liq juda ko'p muammoli jarayonlar o'rganilib, tadqiq etib kelingan. Ma'lumki, hozirgi kunda ilmiy tadqiqotlarda faol qo'llanilayotgan transpozitsiya atamasi zamonaviy tilshunoslikda ayni bir xil talqinga ega emas. Transpozitsiya masalasida tilshunoslar hozirgacha yakdil fikrga kelishmagan.

Tilshunoslikda so'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishini o'rganish XIX asrda A.X. Vostokova, F.I. Buslaeva, G.P. Pavskiy¹ va boshqa tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Tilimiz fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlaridagi ko'chish jarayoni tilshunoslikda transpozitsiya atamasi vositasida ifodalanadi. A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"² da konversiya va transpozitsiya aynan bir xil tushuncha sifatida keltirilgan. Til hodisalarining funksional jihatlari bilan bog'liq, ya'ni til belgilarini qayta toifalash shakllaridan biri "transpozitsiya" o'zining alohida dolzarbligi bilan tavsiflanadi. Hozirgi tilshunoslikda *transpozitsiya* atamasining bir ma'noli talqini yo'q. Bu xususta jahon va o'zbek tilshunoslari umumiy

¹ Есперсен О. Философия грамматики, пер. с англ., М., 1958, -Б 310.

² Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 -Б 109.



Date: 19th November-2024

fikrga kela olmaganlar. Bilamizki, davr o'tishi bilan boshqa sohalarida bo'lgani kabi tilshunoslik ham o'zgaradi, tom ma'noda rivojlanib boradi. Buning natijasi o'laroq til hodisalari ham bunday jarayonlardan chetda qolmaydi va birga o'sib boradi. Transpozitsiya tushunchasini tor va keng ma'noda batafsil tadqiq qilish mumkin. Z.M.Shamilova o'z tadqiqot ishida transpozitsiyaning o'ziga xos xususiyatlari haqida quyidagicha fikr yuritadi. "Ma'lumki, hozirgi tilshunoslikda tranzitivlikni bildiradigan transpozitsiya atamasi qo'llaniladi. Ko'pincha nutq qismlari sohasidagi qiyinchiliklar transpozitsiya bilan bevosita bog'liq. Bu hodisa nutqning bir bo'lagidan ikkinchisiga tarjima qilish yoki nutqning boshqa qismidan foydalanish deb nomlanadi³". Ushbu hodisani batafsil o'rganish uchun uning ma'nosini ko'rib chiqish kerak. *Transpozitsiya* atamasi lotinchadan olingan bo'lib, "o'rin almashtirish" degan ma'noni anglatadi. Azim Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da: "Grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanishi⁴", - sifatida ushbu hodisaga ta'rif berilgan. Transpozitsiya tabiatiga ko'ra ikki xil: ichki va tashqi transpozitsiyaga ajraladi.

Til sahtlaridagi "ko'chish" haqida fikr yuritar ekanmiz. Birgina morfologik sathlari ichidagi bir qismdan ikkinchiga "ko'chish" haqida tilshunos olim T.K.Bardina "So'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishining har bir leksik-grammatik jarayoni o'ziga xos semantik, morfologik va sintaktik tartib shartlariga ega va har bir aniq holatda ba'zi shartlar etakchi, boshqalari esa faqat hamroh yoki neytraldir. So'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishining yagona universal sharti yo'q⁵", - deb ta'kidlaydi. Bu fikrlar bizni transpozitsiya hodisasining kelib chiqish tarixiga nazar solishga undaydi.

Transpozitsiya nazariyasini fransuz tilshunosi Sharl Balli ishlab chiqqan bo'lsa, vaqt o'tib, bu hodisaning alohida xususiyatlarini Telegin, Lev Aleksandrovich⁶, Aleksandrova, Tatyana Nekoloyevna⁷, Dobroxodova, Olga Viktorobna⁸ kabi tilshunoslar o'rganganlar. Xususan tilshunos O.Espersen: "Transpozitsiyani keng ma'noda, ya'ni har qanday lingvistik shaklning ko'chirilishi, ya'ni semantik transpozitsiya, masalan, zamon, mayl,

³Шамилова. З.М.К вопросу об общем понятии транспозиции. Характерные особенности языков. М., - 2017 г. с -166.

⁴Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 -Б 109.

⁵Бардина Т.К. Проблема лексико-грамматической переходности частей речи в современном русском языке. / Диссертация. – 2003. –Б 182.

⁶Телегин, Лев Александрович. Безаффиксальная транспозиция и ее влияние на процессы деривации в современном английском языке. автореф. дисс... док. Филол. наук. Самарканд, 1992.

⁷Александрова, Татьяна Николаевна. Взаимонаправленная транспозиция "имя лица↔признак лица" в русском и английском языках: К изучению системно-языковой и национально-культурной обусловленности деривационных процессов. автореф. дисс... канд. Филол. наук. – Саратов, 2004.

⁸Доброходова, Ольга Викторовна. Категоризация социального статуса человека в языке: на материале английского и русского языков. автореф. дисс... канд. Филол. наук. – Тамбов. 2012.



Date: 19th November-2024

gapning kommunikativ turlari va boshqalarni ko'chirish sifatida ko'rish mumkin⁹”, - deb hisoblaydi. Transpozitsiya hodisasini o'rgangan yana bir tilshunos E.S.Kubryakova bu hodisa haqida “ ...tor ma'noda, funksional transpozitsiya sifatida, bu nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tish yoki uni nutqning boshqa qismi vazifasida qo'llash¹⁰”, - deb tar'rif beradi. Transpozitsiya g'oyasi transformatsion usul asosida shakllanadi. Hozirgi tilshunoslikda transpozitsiya Fonetika, leksikologiya, morfologiya, so'z yasalishi, uslubiyat va sintaksis bilan bog'liq holda o'rganiladi. Grammatik transpozitsiyani qo'llash orqali muallif so'zning mutlaqo yangi grammatik ma'nosini yaratadi va matnga qo'shimcha ma'no kiritadi.

Transpozitsion jarayon faqat tilshunoslikka tegishli bo'lmay tabiiy va ijtimoiy sohalarida ham atama sifatida qo'llanadi. Bular quyidagilardir. “Kombinatorika, genetika, psixologiya, elektrotexnika, adabiy tanqidda shuningdek tibbiyot sohalaridir¹¹”. Bundan tashqari transpozitsiya atamasi lug'atlarda turli ko'chirishlar va metaforalarni belgilash uchun ham qo'llaniladi. Ushbu hodisani tor ma'noda o'rganayotganda, funksional transpozitsiya deb ataladigan transpozitsiya so'zni (yoki so'z o'zagini) nutqning bir bo'lagidan ikkinchisiga tarjima qilish yoki uning boshqa qismi vazifasida qo'llash sifatida ifodalanishi mumkin. Transpozitsiya lingvistik birliklarni semantik yoki funksional taqqoslashga asoslanadi. Shu o'rinda transpozitsiya nazariyasi va uning turlari haqida ham to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Kuzatish asosida anglaymizki, transpozitsiya hodisasining o'rganilishi kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Til taraqqiyoti davomida bu hodisa yuzasidan ko'plab jahon va o'zbek tilshunoslari izlanish olib borgan. Transpozitsion jarayon tilshunoslikning faqat bitta sathida yuzaga kelmaydi. Bu hodisa tom ma'noda keng qamrovli bo'lib, tilimizning mavjud barcha sathlarida kuzatiladi. Shu bilan birga hozirgacha shu mavzu yuzasidan tadqiqot olib borgan tilshunoslar yakdil fikrga kelishmagan. Bu esa sathlar aro transpozitsiya masalasiga qayta murojaat qilishimiz, aniq qoida va nazariyalar ishlab chiqish uchun izlanishlar olib borishimizni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Есперсен О. Философия грамматики, пер. с англ., М., 1958, -Б 310.
2. ҲоҗиевА. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 -Б 109.
3. Шамилова. З.М.К вопросу об общем понятиитранспозиции. Характерные особенности языков. М., - 2017 г. с -166.
4. Ҳоҗиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 -Б 109.

⁹Есперсен О. Философия грамматики, пер. с англ., М., 1958, -Б 310.

¹⁰Кубрякова Е.С. Части речи в ономаσιологическом освещении, М., 1978, -Б 53.

¹¹ <https://library.ziyonet.uz/ru/book/24623>

Date: 19th November-2024

5. Бардина Т.К. Проблема лексико-грамматической переходности частей речи в современном русском языке. / Диссертация. – 2003. –Б 182.
6. Телегин, Лев Александрович. Безаффиксальная транспозиция и ее влияние на процессы деривации в современном английском языке. автореф. дисс... док. Филол. наук. Самарканд, 1992.
7. Александрова, Татьяна Николаевна. Взаимонаправленная транспозиция “имя лица↔признак лица” в русском и английском языках: К изучению системно-языковой и национально-культурной обусловленности деривационных процессов. автореф. дисс... канд. Филол. наук. – Саратов, 2004.
8. Доброходова, Ольга Викторовна. Категоризация социального статуса человека в языке: на материале английского и русского языков. автореф. дисс... канд. Филол. наук. – Тамбов. 2012.
9. Кубрякова Е.С. Части речи в ономаσιологическом освещении, М., 1978, -Б 53.
10. <https://library.ziyounet.uz/ru/book/24623>